

Uzbekistan Airways yangi ketring konsepsiyasini taqdim etadi

2022 21 September

2022-yil 20-sentabrdan boshlab, Uzbekistan Airways Parij, Frankfurt, London va Milan yoʻnalishidagi aviaqatnovlarda bort taomlarini oʻzgartirishni boshlamoqda va ushbu aviaqatnovlarda yoʻlovchilar aviakompaniyaning yangi ketring konsepsiyasini baholashlari mumkin.

Bort taomlari yangi konsepsiyasining asosiy farqi shundaki, Uzbekistan Airways nafaqat menyu va xizmatni oʻzgartiradi, balki unga xalqaro standartlarni inobatga olgan holda tayyorlangan zamonaviy taomlar qoʻshiladi. Asosiy maqsad – borda yoʻlovchilarni yangi taom kontsepsiyasi bilan hayratda qoldirish va xursand qilishdir.

Eslatib oʻtamiz, Seul yoʻnalishi boʻyicha shu yilning avgust oyida bort taomlari konsepsiyasi yangilangan.

Uzbekistan Airways yaqin kunlarda Ketring yangi taomnomasini taqdimotini OAV vakillari bilan oʻtkazishni rejalashtirgan.